

“O‘zsanoatqurilishbank ATB” tizimida bank
hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz hisobvaraqa qiga xizmat
ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarini tuzish bo‘yicha
Tavsiyalarga
— - Ilova

Mijozlarning bank hisobvarag‘lariga masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Ushbu Ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda “Oferta”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, yuridik shaxslarga va Yakka tartibdagagi tadbirkorlarga bank hisobvarag‘lariga masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish yuzasidan shartnomaga tuzish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag‘i ochish yuzasidan murojaat qilingan arizani taqdim etish bilan yohud ushbu shartnomaga ilova qilingan arizani, belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtidan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

1. UMUMIY TAVSIFLAR

“SMS-banking” – yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagagi tadbirkorlarni uyali (mobil) telefon raqamlari orqali bank hisobvaraqlari aylanmalari va qoldiqlari haqidagi ma‘lumotlarni SMS shaklida xabardor qilish xizmati.

Bank-mijoz – Bank tizimida hisobvarag‘iga ega bo‘lgan yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan kompyuter qurilmasi orqali Mijozga biriktirilgan ERI kaliti yordamida o‘z hisobvarag‘larini kuzatish va tasarruf etish bo‘yicha dasturiy majmua.

“SQB Business” – Bank tizimida asosiy va ikkilamchi hisobvarag‘lariga ega bo‘lgan yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagagi tadbirkorlarga kompyuter qurilmasi orqali o‘z hisobvarag‘laridagi pul mablag‘lari harakatini kuzatish va tasarruf etish bo‘yicha dasturiy majmua.

“Mobil banking” – Bank tizimida hisobvarag‘iga ega bo‘lgan yuridik va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan mobil qurilma orqali o‘z hisobvarag‘larini kuzatish va tasarruf etish bo‘yicha dasturiy majmua.

2. SMS-BANKING XIZMATINI KO‘RSATISH TARTIBI VA SHARTLARI

2.1.1. Mijoz “SMS-banking” xizmatidan uyali telefon orqali foydalanadi. “SMS-banking” xizmatidan foydalanish “O‘zsanoatqurilishbank”ning “SMS-banking” axborot tizimida ishslash Tartibiga asosan, uyali telefoni yordamida SMS-ma’lumotlar operatsiyalarini amalga oshirish orqali bajariladi.

2.1.2. “SMS-banking” xizmati Mijozning yozma murojaatida qayd etilgan uyali telefon va hisobvaraqlariga ko‘rsatiladi.

2.1.3. “SMS-banking” xizmati orqali quyidagilar bo‘yicha ma‘lumotlar uzatiladi:

- Hisobvaraqnning joriy qoldig‘i;
- Hisobvaraq bo‘yicha oxirgi kirish/chiqish operatsiyalarini ro‘yxati;

2.2.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.2.1. Bank majburiyati:

- Mazkur shartnomaga akseplanganidan keyin, 3 bank kuni ichida Mijozni “SMS-banking” xizmatiga ularsh;

- Mijozning SMS-so‘roviga ishlov berish va unga javob xabarlarini yuborish;
- “SMS-banking” xizmatidan foydalanish yuzasidan maslaxatlar berish;

2.2.2. Bank huquqi:

-Mijoz tomonidan “SMS-banking” xizmatidan foydalanish qoidalariga rioya qilinmaganda, shuningdek mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilmaganda uni ushbu tizimdan vaqtincha (*majburiyatlar bajarilguniga qadar*) o‘chirish.

2.2.3. Mijoz majburiyati:

-Arizada ko'rsatilgan uyali telefon sim kartasi yo'qolganda, uyali telefon raqami o'zgarganda (almashganda) yoki uyali telefon ulangan kompaniya tomonidan telefon raqami to'liq o'chirilganda, shuningdek begona shaxslarning ruxsatsiz kirishi aniqlanganda Mijoz bu haqida Bankni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilish;

-“SMS-banking” xizmatidan foydalanish uchun har oylik to‘lovini o‘z vaqtida to‘lab borish;

-“SMS-banking” xizmatiga ulangan uyali telefon qurilmasiga kirish kodi maxfiyligini ta'minlash.

2.2.4. Mijozning huquqlari:

-“SMS-banking” xizmatidan foydalanish bo‘yicha axborotlar olish;

-“SMS-banking” xizmatidan foydalanishni vaqtincha to‘xtatish.

3.BANK-MIJOZI DASTURIY MAJMUASI BO‘YICHA XIZMAT KO‘RSATISH TARTIBI VA SHARTLARI

-“Bank-mijoz” Dasturiy majmuasi (DM) Bank va Mijoz o‘rtasida telekommunikatsiya kanallari orqali ma’lumotlarni elektron shaklda ayriboshlashdan iborat.

-“Bank-mijoz” DMsi Mijozga unga berilgan elektron kalit vositasida kompyuter orqali “Bank-mijoz” DMdan foydalanishni nazarda tutadi.

-“Bank-mijoz” DMsi orqali to‘lovlar Mijoz tomonidan faqat to‘lov topshiriqnomasi shaklida amalga oshiriladi.

- Mijozga taqdim etiladigan elektron kalit Bankning mulki bo‘lib hisoblanadi.

3.2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.2.1. Bank majburiyati:

- Mazkur shartnoma mijoz tomonidan akseptlanganidan so‘ng, 5 bank ish kuni ichida Mijozning vakillariga “Bank-mijoz” DMsiga ruxsat ochish, dasturni o‘rnatish va sozlash;

-“Bank-mijoz” DMsidan foydalanish bo‘yicha login/parollar va elektron kalit mijozning mas’ul vakiliga alohida kitobga imzo qo‘yish orqali topshirish;

-To‘lov hujjatlarini kommunikatsiya kanallari aloqasi orqali dam olish va bayram kunlaridan tashqari Bank ish kuni (vaqt) davomida qabul qilish;

-“Bank-mijoz” DMning to‘lov xizmatiga doir masalalari yuzasidan Mijozga maslahatlar berish;

- Elektron imzo yo‘qotilganligi yoki unga ruxsatsiz begona shaxslarning kirganligi aniqlanganligi haqida Mijozning èzma xabari olganidan so‘ng, “Bank-mijoz” DMdan foydalanishni vaqtincha cheklash.

3.2.2. Bankning huquqlari

- “Bank-mijoz” DMdan foydalangan holda xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni vaqtincha to‘xtatib turish yoki ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni rad etish;

-Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida “Bank-mijoz” DMdan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo‘lganda, mazkur shartnomani o‘rnatilgan tartibda bekor qilish choralarini ko‘rish;

-Mijozning aybi bilan yuqotilgan, singan yoki ishdan chiqqan elektron kalit uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda to‘lov undirish;

3.2.3. Mijoz majburiyati:

- “Bank-mijoz” DM ishlashini ta’minalash maqsadida zaruriy texnik vositalar (kompyuter, modem, printer)ni mavjudligini ta’minalash;

- “Bank-mijoz” tizimiga kirish parollarini oshkor qilmaslik, dastur ta’moti va elektron kalitni boshqa tashkilot va shaxslarga, shuningdek “Bank-mijoz” DMsida ro‘yxatdan o‘tmagan o‘zining xodimlariga bermaslik;

- Elektron kalit yo‘qolganda èki unga begona shaxslarning ruxsatsiz kirilganligi faktlari aniqlanganda zudlik bilan yozma ravishda Bankka tegishli chora ko‘rish uchun habar berish;

- Elektron kalit yo‘qotilganda, singan yoki ishdan chiqqanda Bank tariflarida belgilangan miqdorda to‘lovlarini to‘lash;

-Shartnoma bekor qilinganda, elektron kalitni soz va but holatda topshirish;

3.2.4.Mijozning huquqlari

-O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida, hisobvaraqidagi pul mablag‘larni mustaqil boshqarish.

- Hisobvaraqidan o‘tkazilgan operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotlar olish;

- “Bank-mijoz” tizimi bo‘yicha ishslash qoidalariini va ushbu qoidalarga kiritiladigan o‘zgartishlarni Bankdan olish.

4. “SQB BUSINESS” DASTURIY MAJMUASI BO‘YICHA XIZMAT KO‘RSATISH TARTIBI VA SHARTLARI

“SQB Business” Dasturiy majmuasi (DM) Bank va mijoz o‘rtasida telekommunikatsiya kanallari orqali ma’lumotlarni elektron shaklda ayirboshlashdan iborat;

“SQB Business” DMsi Mijozga unga berilgan elektron kalit yordamida Mijozning hisobvarag‘idagi pul mablag‘laridan kompyuter qurilmasi orqali foydalanish imkonini beradi;

- “SQB Business” DMsini mijozlarga o‘rnatishda dastlab elektron kalit foydalanuvchi nomiga ochiladi hamda Mijozning yozma ravishdagi arizasida ko‘rsatilgan mas’ul xodimga beriktiriladi. Bunda foydalanuvchiga biriktirilgan elektron kalitga Mijozning yozma ravishdagi murojaatida ko‘rsatilgan korxonalarни biriktirishga hamda undan foydalanishga ruxsat berilishi mumkin;

“SQB Business” DMsi orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar faqat to‘lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

- Mijozning yozma ravishdagi roziligi bilan “SQB Business” DMsi bir elektron kalit orqali boshka korxonalarни hisobvarag‘laridan foydalanish ham biriktirish mumkin.

- Mijozga taqdim etiladigan elektron kalit Bankning mulki bo‘lib hisoblanadi.

4.2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.2.1. Bank majburiyati:

- Mazkur shartnoma mijoz tomonidan akseptlanganidan so‘ng, 3 bank ish kuni ichida Mijozning vakillariga “SQB Business” DMsiga ruxsat ochish, dasturni o‘rnatish va sozlash;

“SQB Business” DMsidan foydalanish bo‘yicha login, parol (yoki bir martalik) hamda elektron kalitni mijozning mas’ul vakiliga yozma ravishda topshirish;

- To‘lov hujjatlarini Bank va Mijoz o‘rtasida imzolangan bank hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish shartnomasida belgilangan tartibda amalga oshirish;

“SQB Business” DMning to‘lov xizmatiga doir masalalari yuzasidan Mijozga maslahatlar berish.

- Elektron kalit yo‘qotilganligi yoki DMga korxonaning tegishli ruxsatisiz begona shaxslarning kirganligi aniqlanganligi haqida Mijoz Rahbari (direktori)ning yozma yohud og‘zaki xabarnomasi olinganidan so‘ng, “DMdan foydalanishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yish.

4.2.2. Bankning huquqlari

- “SQB Business” DMdan foydalangan holda xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni vaqtincha to‘xtatib turish yoki ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni rad etish;

-Jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida “SQB Business” DMdan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo‘lgan hollarda, mazkur shartnomani o‘rnatilgan tartibda bekor qilish choralarini ko‘rish;

-Mijozning aybi bilan yuqotilgan, singan yoki ishdan chiqqan elektron kalit uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda to‘lovlar undirish;

4.2.3.Mijozning majburiyati:

- “SQB Business” DM ishslashini ta’minalash maqsadida zaruriy texnik vositalar bilan ta’minalash;

- “SQB Business” tizimiga kirish parollarini oshkor qilmaslik, dastur ta’minoti va elektron kalitni boshqa taskilot va shaxslarga, shuningdek “SQB Business” DMsida ro‘yxatdan o‘tmagan xodimlariga bermaslik;

- Elektron kalit yo‘qolganda yoki unga begona shaxslarning ruxsatsiz kirilganligi faktlari

aniqlanganda, zudlik bilan yozma yoki og‘zaki ravishda Bankni xabardor qilish;

- Elektron kalit yo‘qotilganda, singan yoki ishdan chiqqanda Bank tariflarida belgilangan miqdorda to‘lovlarni to‘lash;

-Shartnoma bekor qilinganda, elektron kalitni soz va but holatda topshirish yohud korxonani elektron kalitdan ajratish bo‘yicha ariza bilan murojat qilish;

4.2.4.Mijozning huquqlari

-O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini mustaqil boshqarish.

- Hisobvarag‘idan o‘tkazilgan operatsiyalar bo‘yicha Bankdan ma’lumotlar olish;

-“SQB Business” DM tizimida ishslash qoidalari hamda ushbu qoidalarga kiritiladigan o‘zgartishlar bilan tanishish.

5. MOBIL BANKINGI DASTURIY MAJMUASI BO‘YICH A XIZMAT KO‘RSATISH TARTIBI VA ShARTLARI

–“Mobil-banking” Dasturiy majmuasi (DM) Bank va Mijoz o‘rtasida telekommunikatsiya kanallari orqali ma’lumotlarni elektron shaklda ayriboshlash orqali ko‘rsatilali.

–“Mobil-banking” DMsi Mijozning mobil qurilmasiga (iOS, android operatsion tizimida ishlovchi) o‘rnatilgan sertifikat vositasida dasturdan foydalanishni nazarda tutadi.

- “Mobil-banking” DMsi orqali to‘lovlari Mijoz tomonidan faqat to‘lov topshiriqnomasi shaklida amalga oshiriladi.

- Mijozga taqdim etiladigan sertifikat Bankning mulki bo‘lib hisoblanadi.

5.1.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1.1.Bank majburiyatları:

- Mazkur shartnoma mijoz tomonidan akseptlanganidan so‘ng, 5 bank ish kuni ichida Mijozning mas’ul xodimiga tegishli mobil qurilmasiga “Mobil- Banking” DMga kirishga ruxsat ochish, dasturni va tegishli sertifikatni o‘rnatish;

“Mobil-Banking” DMsidan foydalanish bo‘yicha login/parollar va elektron sertifikatni mijozning mas’ul vakiliga alohida kitobga imzo qo‘ydirish orqali topshirish;

-To‘lov hujjatlarini kommunikatsiya kanallari aloqasi orqali dam olish va bayram kunlaridan tashqari Bank ish kuni (vaqt) davomida qabul qilish.

“Mobil-Banking” DMning to‘lov xizmatiga doir masalalari yuzasidan Mijozga maslahatlar berish.

- Mobil qurilma yo‘qotilganligi yoki unga ruxsatsiz begona shaxslarning kiriganligi aniqlanganligi haqida Mijozning yozma xabari olganidan so‘ng, “Mobil-Banking” DMdan foydalanishni vaqtincha cheklash;

5.1.2. Bankning huquqlari

- “Mobil-banking” DMdan foydalangan holda xizmatlarni ko‘rsatish jaraenida shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni vaqtincha to‘xtatib turish yoki ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni rad etish;

-Jinoi faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida “Mobil-banking” DMdan foydalanilganligi haqida asoslantirilgan shubhalar mavjud bo‘lganida, mazkur shartnomani o‘rnatilgan tartibda bekor qilish choralarini ko‘rish;

5.1.3. Mijoz majburiyatı:

- Shartnomani akseptlash chog‘ida “Mobil-Banking” DMsi ishslashini ta’minalash maqsadida soz holatda bo‘lgan texnik vositalar (smartfonlar èki planshetlar)ni mavjudligini ta’minalash;

- “Mobil-Banking” tizimiga kirish parollarini oshkor qilmaslik, mobil qurilmani boshqa tashkilot va shaxslarga bermaslik;

- Mobil qurilma yo‘qolganda yoki unga begona shaxslarning ruxsatsiz kirilanligi faktlari aniqlanganda zudlik bilan èzma ravishda Bankka tegishli chora ko‘rish uchun habar qilish;

- shartnoma bekor qilinganda, “Mobil-Banking” DMsi o‘rnatilgan mobil qurilmani Bank ma’sul

xodimiga taqdim etish. Bunda, ma'sul xodim mobil qurilmaga o'rnatilgan sertifikatni o'chirgandan so'ng, qurilmani o'z egasiga qaytarib beradi;

- mobil qurilmani va undagi dasturlarni xavfsizligin ta'minlash maqsadida qurilmaga antivirus dasturini o'rnatish va tegishli muddatlarda antivirus bazasini yangilab borish;

- mobil qurilmadan foydalanish to'xtatilganda qurilmaga o'rnatilgan "Mobil-Banking" dasturni o'chirish;

5.1.4. Mijoz huquqlari:

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida, hisobvaraqidagi pul mablag'larni mustaqil boshqarish.

-Hisobvaraqidan o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar olish;

-"Mobil-banking" tizimi bo'yicha ishslash qoidalari va ushbu qoidalarga kiritiladigan o'zgartishlarni Bankdan olish.

6. BANK XIZMATLARIGA TO'LADIGAN HAQ MIQDORI VA TARTIBI

6.1. Bankning mazkur oferta shartnomasida keltirilgan masofaviy bank xizmatlariga mijozlarni ulash, ularga elektron raqamli imzo taqdim etish va dastur vositalari o'rnatish bepul taqdim etiladi, bundan mijozlarni ushbu bank xizmatlariga takroriy ulash xollari mustasno.

6.2. Bank tomonidan ushbu shartnomaga asosan ko'rsatilgan masofaviy bank xizmatlari uchun, xizmat ko'rsatilgan vaqtida amalda bo'lgan Tariflarga asosan haq olinadi.

6.3. Bank tomonidan mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq mijozning hisobvarag'idan uning roziligidan va topshirig'isiz (akseptsiz ravishda) hisobdan chiqariladi.

6.4. Tariflarga o'zgartirishlar va/èki qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, Bank bu haqida mijozni ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmasdan, ushbu o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilgan kundan 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay quyidagi usullardan biri bilan xabardor qiladi:

a) mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi bankning alohida bo'linmalarida axborot stendlarida e'lon qilish orqali;

b) bankning veb-sahifasida e'lon qilish orqali: www.sqb.uz; v) boshqa yo'llar bilan (bankning xohishiga ko'ra).

6.5. Agar mijoz tariflarga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalarga rozi bo'lmasa, mijoz bunday o'zgartirish yoki qo'shimchalar kuchga kirkunga qadar shartnomani ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda bekor qilishga haqlidir.

6.6. Masofaviy bank xizmatlari uchun haq mijoz dasturga ulangan oydan boshlab hisoblanadi, bunda xizmatlardan foydalanish bank tomonidan cheklanganda yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha to'xtatilganida, xizmat ko'rsatilishi to'xtatilgan oyning keyingi oyidan boshlab haq olinmaydi.

7. Korrupsiyaga qarshi shartlar

7.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsiyon xarakatlarni to'liq ta'qilash va har qanday shaklda yordam (bevosita y o ki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddallashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan sièsat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

7.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zları, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsiyon to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsiyon to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmashliklarini kafolatlaydi.

7.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida èzma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf èzma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens ishonch liniyasi” kanallari (**tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenger SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

7.4. Ushbu bo‘lim qoidalari taraflardan biri tomonidan bузилганлиги fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko‘rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma’lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to‘liq bekor qilishga haqli.

7.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

8.Sanksiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish bo‘yicha shartlar

1 Ushbu Shartnomaga bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o‘z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo‘llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

8.2. Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘larni kiritish yoki mijoz topshirig‘iga asosan hisobvarag‘idan o‘tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risidagi xalqaro qonun hujjatlariiga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko‘rish (tekshirish va o‘rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliètni zarur bo‘lgan davrga to‘xtatib qo‘yishga haqli.

8.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo‘yicha har qanday ma’lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to‘g‘risidagi ma’lumotlar, uning to‘liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro‘yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdar shaxslari, xodimlari, yoki to‘g‘risida, jo‘natish hujjatlari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa zarur ma’lumotlar*) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

8.4. Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘larni mijoz hisobvarag‘iga kirim qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdar shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

8.5. Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejalashtirilgan amaliètlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga oshirayotgan mijozdan xalqaro e’tirof etilgan va reytingga ega bo‘lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliètni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliètni o‘tkazishda mustaqil hisoblanadi.

Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

8.6 Mijoz faoliyati sanksiya bo‘yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo‘lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar bузилганлигини tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

8.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarni bузилганлик faktlarini/materiallarni rad etuvchi asoslari mavjud bo‘lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kunidan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

8.8. Mijoz o‘z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko‘rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdar shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

8.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag‘lar bo‘yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag‘larini jo‘natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro‘yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

9.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Mijoz elektron pul-hisob kitoblar hujjatlarini to‘g‘ri shakllanishi, shartli belgilash va aloqa kanallari orqali ularni bankka taqdim etish, shuningdek axborot xavfsizligi talablariga, ta‘minot vositalari va elektron raqamli imzodan foydalanish qoidalariga rioya etish uchun javobgardir.

9.2. Bank Mijoz hisobvaraqlariga pul mablag‘larni to‘g‘ri kiritib qo‘yish va hisobvaraqlardan chiqarish hamda ma’lumotlarni elektron to‘lov tizimi orqali o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun javobgardir.

9.3. Mazkur shartnoma bo‘yicha tomonlar zimmasiga olingan majburiyatlarni buzganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikiga muvofiq javobgar bo‘ladi. Mijoz elektron pul hisob-kitob hujjatlarini 24/7 kunu-tun tartibida amalga oshirilishida ularning qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan javobgar hisoblanadi, bunday hollarda Bank amalga oshirilgan to‘lovlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

10. FORS - MAJOR HOLATLAR

10.1. Shartnoma tuzilganidan so‘ng, bir tomon ikkinchi tomon oldida ularning ixtiyori va xohishidan tashqari, oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan va oldini olib bo‘lmaydigan, jumladan, suv toshqini, yong‘in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar natijasida kelib chiqqan vaziyatlarda mazkur shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

10.2. Bank mazkur shartnomaning 7.1. bandida ko‘rsatilgan fors-major holatlaridan tashqari quyidagi holatlarda ham javobgarlikdan ozod etiladi:

- banklararo elektron to‘lov tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uzilishlar ro‘y berganda;
- mijoz tomonidan amaldagi qonunchilik talablariga javob bermaydigan elektron to‘lov hujjatlari taqdim qilinganda;
- qonunchilikda belgilangan tartibda Bank yoki Mijoz hisobvaraqlarida operatsiyalar to‘xtatilganda;
- bankka bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra elektr quvvatining vaqtinchalik mavjud bo‘limganda;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking banklararo telekommunikatsion tizimi avariya holatida o‘chirilganda.

11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o‘rtasida muzokara yo‘li bilan hal qilinadi.

11.2. Agar kelib chiqqan nizo va kelishmovchiliklarni muzokora yo‘li bilan hal etib bo‘lmasa, ular amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi.

12. ShARTNOMANING BOSHQ A ShARTLARI

12.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda akseptlangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi va bekor qilinmaguniga qadar amal qiladi.

Mazkur shartnoma mijoz tomonidan yozma ravishda murojaat qilgan har qanday vaqtida, shuningdek hisobvaraq boshqa bankka o‘tkazilganida yoxud mijoz faoliyati belgilangan tartibda tugatilgan taqdirda bekor qilinagan hisoblanadi.

12.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan, u bilan bog‘liq barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

20 _____ yil — _____ dagi № _____ milliy valyutadagi
bank – hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish shartnomasiga
2- Illova

—O‘zsanoatqurilishbank ATB
BXO/BXM

dan

A R I Z A

“_____” nomiga quyidagi hisobvaraqlarni ochishingizni so‘rayman.

Milliy vayutada

Evroda

|

AQSh dollarida

Rossiya rublida

|

20_y. “_____”
(to ‘ldirilgan sana)

(rahbarning imzosi)

M.O’. (muhr mayjud bo ‘lganda)

BANKNING BELGISI

Hisobvaraqlari ochish hujjatlarini tekshirdim: mas’ul xodim

(imzo)

Hisobvaraqlari 20_yil “_” _____ da ochildi.
Hisobvaraqlari raqami _____.

Izoh:

- Ochiladigan hisob raqam turiga “V” belgisi, ochilmayligan hisob raqam turiga “X” belgisi qo‘yiladi; (arizachining nomi)

Приложение _____
к Рекомендациям по заключению договоров банковского
счета и других договоров для оказания услуг по счетам
клиента в системе АКБ "Узпромстройбанк"

ДОГОВОР ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ
на оказании дистанционных услуг по обслуживанию банковских счетов Клиентов

Настоящий договор публичной оферты (далее-оferта) является официальной публичной оферой, направленной в соответствии со статьями 367 и 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан для заключения договора на оказание дистанционных услуг по обслуживанию банковских счетов юридическим лицам и индивидуальным предпринимателям.

Договор публичной оферты считается заключённым (акцептированным) с момента обращении Клиента заявлением об открытии банковского счета или полного заполнения в установленном порядке приложенного к настоящему договору заявления, и означающих безоговорочное принятие Клиентом всех условий настоящего договора публичной оферты и оплату платежей без каких-либо ограничений в соответствии с Тарифами Банка.

1. ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ

"SMS-банкинг" – услуга посредством направления на номер мобильного телефона в виде SMS сообщений информацию об оборотах и остатках средств на банковских счетах юридических лиц и индивидуальных предпринимателей не имеющих статуса юридического лица.

"Банк-Клиент" – это программный комплекс для отслеживания и распоряжения своими счетами через компьютерное устройство юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями не имеющих статуса юридического лица со счетом в банковской системе с использованием ключа ERI, прикрепленного к Клиенту.

